



DESCRIPTION OF THE IMAGE OF BEBAQO IN SAID AHMED'S QORAKO'Z MAJNUN

Usarova Laylo Ibragimovna¹

To'ychiyeva Jasmina Bunyod qizi²

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

KEYWORDS

mother, dog, child,
happiness, religion, hadith,
homeland, loyal

ABSTRACT

In this article, the analysis of the work "Qorako'z majnun", which is one of the best stories written by the talented writer Said Ahmed during the years of independence, is highlighted.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10370313**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

² Uzbek language and literature student, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Uzbekistan

SAID AHMADNING QORAKO'Z MAJNUN ASARIDA BEBAQO FARZAND OBRAZIGA TAVSIF

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

ona, it, bola, baxt, din, hadis,
vatan, sodiq, vafo, tabiat,
but, maqbara, cherkov

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada iste'dotli yozuvchi Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozilgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradigan "Qorako'z majnun" asarining tahlili yoritib beriladi.

Said Ahmadning ushbu hikoyasini o'qiyotgan har bir o'quvchining ko'zlariga yosh keladi, nahot farzand shunchalikka borsa deb achinish bo'ladi.

Yozuvchi bu hikoyaga "Qorako'z majnun" deb nom qo'yishiga sabab o'zini yonida doimo turgan shu it hisoblanadi. Shu itchalik bo'la olmagan farzand obrazini ko'rgan kitobxon nafratlanmay qo'ymaydi, bu yerda onasiz bir dam yasholmaydi, usiz turolmaydi.

Saodat aya timsolida ham barcha mehribon, shirinso'z ona siymosini ko'rish mumkin. Rus yurtida qolib ketgan o'g'li kasalxonada yotganida uni ko'rgani kelolmagani bu yerda ham shu it ko'ksini zaxga berib yotgan bir dam yonidan ketmagan. Ona barcha farzandlar uchun jonini ham beradi. O'g'li armiyaga ketib qaytib kelmaydi. Tilsiz, ongsiz hayvon it onaga bor mehrini berib, unga ergashib yuradi.

Saodat aya bomdod nomozini o'qib, joynomoz poyida uzoq duo qildi. Eri Turobga atab, Qur'on tilovat qildi. Rus shahrida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmagan qizi Qumriga farishtaginamni yo'lini och deb iltijo qildi.[1.15]

Saodat aya o'zini har doim yolg'iz his etardi. Erining yo'qligidan har doim ezilardi, qani edi hozir yonimda bo'lsa bunchalik qiynalmasdim. Birga hamma muammoga yechim topardik deydi. Yana o'g'li Bo'rixon dastidan ham qiynaladi, ba'zi birlar o'lgan deydi, lekin u tirik deb yashay boshlaydi. Chunki u bir kun bo'lmasa, bir kun keladi deb umid qiladi. Har qanday ona farzandini yaxshi tomonini aytadi, kelishiga umid qiladi. Qizi Qumri ham turmushga chiqadi, farzandsizlik sababli turmushdan ajraladi, undan keyin tirikchilik bilan shug'ullanadi. Uni kuzatib turgan ona qarab eziladi, shu farzandining baxti ochilishini tilaydi. Hatto, o'limdan oldin ham vasiyat qiladi. Shu qumriginamni yolg'iz qoldirmang unga qarashib turing deydi va nevarasini shu yerda uylantirib, Qumri bilan qolishini vasiyat qiladi.

Itning bir qulog'ida, bo'ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

- Ahmoq! - dedi kampir. - Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo'lmay ketgur![2.78]

Qorako'z marjabozlikka borib ancha vaqt kelmay ketadi, uni ovqatsiz qolishi ancha vaqtdan keyin keladi, hamma joyi bir ahvolda qon urushgan hamma joyi kir. Shu o'rinda Bo'rixonga ham qiyoslaydi u ham o'zga yurtga ketib, boshqa dinga o'tib ketishi u ham bir

qizni deb hech narsani o'ylamaydi. Bu yerda it orqali shu o'g'lini nazarda tutgan bir-biriga zidlagan. Aslida Qorako'zni o'limini kulminatsion nuqtasi desak adshmaymiz. Lekin bu yerda shu it qaytib keladi, lekin farzandi yillar davomida kelmaydi, itchalik bo'lmaydi shu it ham marjabozlikka borsa ham qaytib keladi.

Tut tagida yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o'tirardi. "Bundan o'ttiz ikki yil oldingi Bo'rixonning ko'zlari edi. Kampir yugurib borib uni bag'riga bosadi, voy bolam deb bag'ridan bo'shatmaydi. Garchi undan sham yoqilgan uyning hidi kelsa ham,

- Na za chem, za chem plachesh mama vati priexal, xvatit-derdi. O'g'lini eshitmasdi, eshitsa ham tushunmasdi. [3.112]

Bu yerda o'g'li qarigan paytida keladi na tilni biladi, na ota-onani hech kimni tanimaydi, hattoki boshqa tilda so'zlaydi. U o'z tilini, dinini unutishi manqurtdan farqi yo'q. Bo'rixon tirik bo'lsada uning tirikligidan o'limi yaxshiroq.

Said Ahmad bu bilan nima demoqchi, Insonning manan o'limi, jismonan o'limidan ayanchliroq ekanligini ogohlantirgan.

Ona qarab turib farzandini tusida o'zbek xalqiga xos tus qolmaganligini ko'rib, boshqa tilda so'zlayotganini eshitib, unadan vos kechadi.

Olimlarimizning inson hayotida ikki muhim kun bor ekanligini aytadi. Ulardan biri dunyoga kelgan kun bo'lsa, boshqa biri dunyoga nima maqsadda kelganini anglagan kun deydi. Bo'rixonda ikkinchi kun mavjud emas u o'zini unutib qo'yadi nima maqsadda kelganligini, bir qizni deb butun hayotini barbod qiladi. Qorako'z majnunga kelsak u qilgan ish har qanday inson qilgan ishdan yuksak darajada. Saodat ayaga yupanch, sodiq, mehribon ham bo'ladi. O'limidan so'ng ko'chalarni aylanib onani qidiradi, farzandlarini uyigacha boradi, lekin topolmaydi.

Zero inson insoniyatini yo'qotdimi biror umid yo'q, borligidan yo'qligi yaxshiroq.

Bo'rixon o'rmon ichkarisidagi qishloq Butxonalini qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiqu beqaror bo'lib qoladi. Qallig'ining otasi boshqa dindagi odamga qizimni bermayman deb turib oladi. Qiz Bo'rixonni Xristian diniga kirishga undadi. Hech ikkilanmay Bo'rixon rozi bo'ldi. [4.138]

Bu yerda o'z ona tilini o'ylab ham o'tirmay boshqa dinga o'tishi aks ettirilgan. Inson bunchalik ham bo'lmasligi kerak. Bir qizni deb butun hayotini barbod qilish asl o'zbek farzandiga yarshmaydi. Onaning shu farzandini o'ylab uxlolmay chiqqan kunlari, hatto, shu joynomozlarida ham o'g'lini qaytib kelishini umid bilan kutgan kunlari ham bo'lgan. Nahotki, unga oq sut bergan, yemay yedirib, kiymay kiydirib, bor mehrini bergan onani o'ylamasa, bunaqa farzandni boridan yo'g'i yaxshiroq-ku!

Ona o'z farzandidan olmagan mehrini shu bir itdan topadi. Bo'rixon onasining o'limiga ham sabab bo'ldi, agar u kelmaganida saodat aya o'lmasdi, balki uni kutib yashayverardi.

Hikoyada o'z tilini, dinini oyoqosti qilmasdan, uni e'zozlab, unga bor mehrini berib, dinini qadrlab, din haqida yomon gapirgan insonga ibrat bo'la oladigan darajada inson bo'lish kerakligi maqsad qilib olingan.

Nahotki, insonlar shu itlar kabi bir-biriga mehrli bo'lolmasa, it axir ongsiz mavjudod-ku, inson shu bir hayvon kabi bo'lolmaydimi, doimo bir-biringizdan mehringizni ayamang aziz insonlar.

Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa bas, ana o'shalarning amallari xabata bo'lur ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar.[5.198]

Asardagi bu epigraf diniy jihatdan Bo'rixon boshqa dinga o'tgan kuniyoq do'zax ahli bo'lgan ekanligidan dalolat beradi. O'z yurtini sevmagan inson, uning mustaqillikka erishgani bilan ishi yo'q, u manqurtdan battar edi. O'z ota-onasini sevmasa Vatanini ham sevolmaydi. O'zi muhabbat tuyg'usi uydan ilk qadam tashlagan joyidan boshlanadi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib sal o'ziga kelganday bo'lib tilga kirdi. Asli olganda umri tugagan edi. Bu xushxabar uni tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o'chish oldidan bir lop etishiga o'xshardi. Shu tariqa vasiyat qilib shu jilmayganicha ichidagi muz erimay osongina jon berdi.[6.244]

Bevafo farzandning onasiga qilgan vafosizligi sabab nihoyasiga yetayotgan umrini mana shu xushxabar bir muncha uzaytirgan. Bu achinarli holat insonni larzaga soladi. Chunki kichikligidan havas bilan ulg'aytirgan farzandning onaga bunday javobi ayanchli, albatta!

Bunga "Asrga tatigulik kun" romanidagi Sobitjon va Jo'lomon obrazlari misol bo'ladi. Asardagi ikkala obraz ham asarda manqurt sifatida tasvirlangan. Jo'lomon shunaqa manqurtki, faqat unda odamlarnikiga o'xshash tashqi ko'rinish bor xolos. U insoniylik fazilatlaridan begona insondir. Jo'lomon, hatto, uni dunyoga keltirgan onasini ham tanimaydi, otasini ham bilmaydi, ismini ham eslay olmaydi.

U huddi ko'chadagi daydi hayvonlardek, qorin g'ami bilan yashaydi. Sobitjonga keladigan bo'lsak, u Jo'lomondek xotirasini yo'qotgan emas. U zamonaviy manqurt, o'z tarixini bilmaydigan, insoniy tuyg'ulardan mahrum, milliy urf-odatlarini mensimaydigan o'ta darajada xavfli manqurt.

Sobitjon otasining janozasiga emas, u qarzini uzgani kelgan edi. Sobitjon Kazangapning vasiyatini oyoqosti qilib: otamni shuncha uzoqqa olib borib yuramizmi? Shunday katta cho'lda bitta odamga joy topiladi[5.24]—degani uni Jo'lomondan ham yomonroq darajada ekanligini ko'rsatib turibdi.

Naymon ona o'g'lining bedarak yo'qolganidan, tushkunlikka tushib qoladi. O'g'lini o'lgan desa ham ishonmaydi.

Manqurtlikdan qutilishning yagona yo'li bu yaxshilik qilishdir. Agar siz kimgadir kerakli paytda, kerakli joyda yordam ko'rsatsangiz, demak siz insonsiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev H. So'z sehri. Maqolalar to'plami.-T.:TDPU,2005.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-Toshkent:Fan,2007.
3. Said Ahmad „Qorako'z majnun“, „ O'zbekiston“ nashriyoti, Toshkent, 2013.
4. Salayev F. Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. Toshkent:Yangi asr avlodi,2010.

5. Chingiz Aytmatov „Asrga tatigulik kuni” ,Yoshlar nashriyoti , Toshkent 2018.